

## O'ZBEKISTONDA AJRIMLAR KO'RSATKICHI MDH BO'YICHA ENG PAST: IJOBIY TENDENTSIYALAR VA MUOMALA

*Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o`g`li*

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi*

*Pulatov Otobek A`zamjon o`g`li*

*Ilmiy rahbar: NamDU Yuridik fakulteti o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O`zbekistonda oilaviy ajrimlarga sabab bo`layotgan ba`zi sabablar, oilaviy munosabatlarning mustahkamlash uchun olib borilayotgan islohotlar haqida, shuningdek oilaviy ajrimlarning MDHdagi davlatlar orasidagi ko`rsatkichlari haqida tahlillar olib boramiz.

**Kalit so'zlar:** Namunali oila, Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi, Oila mediatsiyasi, soxta nikoh, avtomatlashtirish

### **The rate of divorce in Uzbekistan is the lowest among the Commonwealth of Independent States: positive trends and treatment**

**Abstract:** In this article, we will analyze some of the causes of family divorces in Uzbekistan, the reforms being carried out to strengthen family relations, as well as the indicators of family divorces among the countries of the Commonwealth of Independent States.

**Key words:** Model family, Commonwealth of Independent States, Family mediation, sham marriage, automation

### **Уровень разводов в Узбекистане самый низкий среди стран Содружества Независимых Государств: положительные тенденции**

**Аннотация:** В данной статье мы проанализируем некоторые причины семейных разводов в Узбекистане, проводимые реформы по укреплению семейных отношений, а также показатели семейных разводов среди стран Содружества Независимых Государств.

**Ключевые слова:** Модельная семья, Содружество Независимых Государств, Семейная медиация, фиктивный брак, автоматизация

**Kirish**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi<sup>1</sup> 76-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Ma'rifatparvar alloma Abdurauf Fitrat<sup>2</sup> "qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi", deganidek, oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham osoyishta bo'ladi.

Oilalar tinchligi va totuvligini saqlash nafaqat oila a'zolarining, balki butun jamiyatning eng birinchi galdeg'i mas'uliyati va vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adliya vazirligining ma'lum qilishicha<sup>3</sup>, O'zbekistonda oilaviy ajrashuvlar ko'rsatkichi MDH bo'yicha eng past hisoblanadi. Mamlakatimizda 9 milliondan ortiq oila mavjud. Yiliga o'rtacha 250 – 300 ming yangi oila qurilmoqda. Ammo, shu bilan birga, har yili o'rtacha 45-49 ming oilaviy ajrimlar ham kuzatilmoqda. Achinarlisi, nikohdan ajrashayotganlarning 4-5 foizini bir yilgacha, 40 foizini esa besh yilgacha bir oila bo'lib yashaganlar tashkil etmoqda.

Shunday bo'lsa-da, ajralishlarning oldini olish yuzasidan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar o'z samarasini ko'rsatishni boshlamoqda. Masalan, ajrimlar soni 2021 yilda 41 foizga, 2022 yilda 22 foizga ko'paygan bo'lsa, 2023 yilda o'sish sur'ati keskin tushib, 2022 yilga nisbatan atigi 0.8 foizga ko'paygan (o'sish sur'ati 2022 yilga nisbatan 27 baravarga kamaygan).

Shu o'rinda, MDH Davlatlararo statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston nikohlar soni bo'yicha MDHda birinchi, ajralishlar bo'yicha esa oxirgi o'rinda turadi. 2022 yilda O'zbekistonda har 1 000 kishiga nikohlar soni 8,4 tani, ajralishlar soni 1,4 tani tashkil etgan.

### **Asosiy qism**

Oilaviy ajralishlarning oldini olish yuzasidan adliya organlari ham o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotganini ta'kidlash o'rini.

Birinchidan, namunali oila mezonlarini hayotga joriy etishda huquqiy targ'ibot tadbirlarining o'rni beqiyos ekanini inobatga olgan holda xotin-qizlar ishtirokida 1092 marotaba davra suhbatli tashkil etildi, 129 marta televideniyada, 317 marotaba radioda oila mustahkamligiga bag'ishlangan chiqishlar qilindi, 4 ming 214 marotaba ijtimoiy tarmoqlarda kontentlar joylashtirildi. Birgina, "Har bir uyda bepul huquqiy maslahat bilan" huquqiy aktsiyasi doirasida 5 ming 892 nafar xotin-qizlarga ularni qiynayotgan muammolar yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi. 2023 yil davomida adliya organlari tomonidan manzilli targ'ibotlar orqali olib borilgan tushuntirish va profilaktik suhbatlar natijasida qonuniy nikohdan o'tmasdan birga yashab kelayotgan 30 mingdan ortiq oilalarning nikohi qonuniy ravishda qayd etib berildi. Natijada 19

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145>

<sup>2</sup> chrome-

extension://efaidnbmnnibpcajpcglclefindmkaj/https://library.tsdi.uz/storage/books/March2022/0mwSY33y9r4vVvH BXx3W.pdf

<sup>3</sup> <https://m.kun.uz/news/2024/02/25/ozbekistonda-ajrimlar-korsatkichi-mdh-boyicha-eng-pastligi-malum-qildi>

mingdan ortiq bolalarning tug'ilishi yolg'iz ona yoki otalikni belgilash tartibida qayd qilinishi mumkin bo'lgan holatlarning oldi olindi. Tug'ilishlarni yolg'iz ona tartibida qayd qilinishi holatlari 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 12 foizga kamayganining o'zi ham amalga oshirilayotgan ishlar o'z samarasini berayotganini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, nikoh shartnomalari tuzishning ijobiy jihatlari haqida berilgan tushuntirishlar natijasida nikoh shartnomalarini notarial tartibda tasdiqlash amaliyoti qariyb 50 foizga oshdi.

Ikkinchidan, nikohlanuvchilarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish hamda oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish maqsadida FHDYO bo'limlariga nikohni qayd qilish uchun ariza bergan yoshlarni ixtiyorilik asosida o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarida 5 ming 670 sig'imga ega bo'lgan 229 ta xona ajratilib, FHDYO bo'limlari mudiralari, oila va xotin-qizlar bo'limlari rahbarlari, tibbiyot muassasalari shifokorlari, diniy ulamolar, psixologlar va boshqa soha vakillari bilan birgalikda oyiga o'rtacha 7-8 ming yosh nikohlanuvchilarda ibratli oila bo'lish ko'nikmalari shakllantirilmoqda.

Uchinchidan, Adliya vazirligi tomonidan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda mahalla raislari va xotin-qizlar faollarining mediatsiya usulini qo'llash sohasidagi bilim va malakalarini oshirish choralari ko'rildi. Bunda, "Oila mediatsiyasi" bo'yicha qisqa muddatli o'quv mashg'ulotlari tashkil qilinib, 2023 yilda 3 mingdan ortiq, 2024 yilning o'tgan davrida esa 5 mingdan ortiq mahalla raislari, xotin-qizlar faollarining malakasi oshirildi.

To'rtinchidan, aksariyat oilalarning muammolarini hal etish maqsadida Adliya vazirligi tashhabbusi bilan joriy yilning 20 yanvar kunidan boshlab "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi"<sup>4</sup> huquqiy aktsiyasi o'tkazilmoqda. Aktsiya doirasida har bir mahalla kesimida huquqiy yordamga muhtoj oilalar ro'yxati shakllantirilib, muammolarini o'rganish hamda ularga malakali mutaxassislar tomonidan amaliy yordam ko'rsatish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Nikohdan ajralishlarning sabablari tahlil qilinganda yoshlar orasida oilaviy hayotga yengil qarash, oilani rejalashtirish masalasiga jiddiy qaramaslik ortidan oilada ijtimoiy ahvolning qiyinlashuvi, ayrim hollarda nikohlanuvchilarning oila qurishga umuman tayyor emasligi, shuningdek, oilada uchinchi shaxslar aralashuvi va boshqalar sabab bo'layotganini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, fuqarolar ayrim hollarda oila qurish uchun emas, balki biror bir imtiyozdan foydalanish yoki boshqa bir maqsadni ko'zlagan bo'ladi. Masalan, AQShga borish uchun biror bir shaxs "Green card" yutib olgan bo'lsa, boshqa bir fuqaro u bilan AQShga borib olish uchun soxta nikoh tuzib, keyinchalik ular maqsadlariga erishganlaridan so'ng, nikohlarini bekor qilish holatlari ham yo'q emas.

<sup>4</sup> <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/hech-bir-shaxs-hujjatsiz-qolmaydi-huquqiy-aksiyasiga-start-berildi>

Bu kabi holatlarning oldini olish yuzasidan Adliya vazirligi tomonidan nikohlanuvchilarni qisqa kurslarda o'qitish qamrovini oshirish va ularning bu boradagi bilimlarini yanada oshirish, shuningdek, nikohlanuvchilarga nikoh shartnomasining afzalliklari va uning huquqiy ahamiyatini tushuntirish, oilaviy nizolar bilan shug'ullanadigan professional mediatsiya institutini rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda<sup>5</sup>. Shu bilan birga, FHDYO tizimidagi tartib-taomillarni avtomatlashtirish orqali aholining ortiqcha ovoragarchiliklarini yanada qisqartirish soha oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Masalan, shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan vaqtি kabilar o'zgarganda avtomatik tarzda boshqa ma'lumotlarni (haydovchilik, ta'lim, tadbirkorlik, ko'chmas mulk va boshqalar) o'zgartirish ustida ishlar olib borilmoqda.

O`zbekistonda oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar boshqa davlatlardan ko`ra ancha yahshi natijalar bermoqda. Buni birgina oilaviy ajrimlarni o`zaro taqqoslash orqali isbotlab ko`rsatishimiz mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasida statistikaga ko`ra<sup>6</sup> har 1000 nikohga 700 ta ajralish to`g`ri keladi. 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida Rossiyada 800,4 ming nikoh va 566,8 ming ajralish qayd etilgan. So`ngi 10 yilda ichida ruslarning turmush qurish ko`rsatkichi kamroq bo`ldi, ajralishlar soni esa deyarli rekord darajaga yetdi.

Qo`shni qozog`istonda ham ajrashganlar ko`p. Statistikaga ko`ra<sup>7</sup>, Ostonada har uchinchi oila ajrashadi. Britaniyaning “The Economist” nashri dunyo reytingida Qozog`iston ajralishlar soni bo'yicha 10-o'rinni egalladi. Bu ko`rsatkichlarni O`zbekiston bilan taqqoslaydigan bo`lsak, O`zbekistondagi ahvolning ancha yahshiligi ko`ramiz. Lekin biz bu bilan xotirjam bo`lib qolmasdan, oilaviy ajrimlarni maksimal kamaytirishga qaratilgan islohotlar olib borishda davom etishimiz kerak. Quvonarlisi bu masalaga davlatimiz rahbari tomonidan ham jiddiy e`tibor qaratilmoqda, xususan “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi<sup>8</sup> Prezident qarori bilan (PQ-401, 21.12.2023-y.) 2024-yil 1-fevraldan tajriba tariqasida fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar, Namangan tumanlararo va Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudlarining 2 nafardan sudyasini oilaviy nizolarni ko'rish bo'yicha ixtisoslashtirgan holda ushbu sudlarda “Oila sudyalari” tashkil etildi

## Xulosa

<sup>5</sup> <https://uzmarkaz.uz/uzc/news/oila-mediatsiyasi-kuchaytirilmoqda>

<sup>6</sup> <https://journal.tinkoff.ru/stat-divorce/#:~:text=%D0%9F%D0%BE%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%BA%D0%85%2C%20%D0%BD%D0%B0%2010%20%D0%B1%D1%80%D0%B0%D0%BA%D0%BE%D0%B2,%D1%84%D0%BE%D1%80%D0%BC%D1%83%D0%BB%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%BA%D1%83%20%C2%AB%D0%BD%D0%BC%20%D1%81%D0%BE%D1%88%D0%BB%D0%B8%D1%81%D1%8C%20%D1%85%D0%B0%D1%80%D0%BA%D1%82%D0%B5%D1%80%D0%BC%D0%B8%C2%BB>

<sup>7</sup> [https://kaz.inform.kz/news/kazakstanda-arbir-ekinshi-otbasy-azhyrasady-statistika\\_a3487098/](https://kaz.inform.kz/news/kazakstanda-arbir-ekinshi-otbasy-azhyrasady-statistika_a3487098/)

<sup>8</sup> <https://lex.uz/docs/-6704819?query=426>

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oilada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, oilaviy nizolar va zo'ravonlikning oldini olish, oila mustahkamligini ta'minlash huquqiy davlat qurishning asosiy poydevori hisoblanadi. Bu borada munosib hissa qo'shishni adliya organlari o'zining ustuvor vazifalaridan biri, deb biladi. O'zbekistondagi oilani mustahkamlash uchun olib borilayotgan ishlar o'z samarasini ko`rsatmoqda, buni yuqorida tahlillarimiz orqali ham ko`rish mumkin. Chunki, olib borilayotgan islohotlar samarasi o`laroq O'zbekiston garchi nikoh qurish bo`yicha MDH davlatlar o`rtasida emg oxirgi o'rinda turganligiga qaramay, ajrashishlar soni bo`yicha unda oxirgi o`rinni olmoqda. Shunga qaramay oilaviy ajrimlarni kamaytirishga, oilaviy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar olib borishdan to`xtab qolmasligimiz zarur. Chunki oila butun va mustahkam bo`lsa, unda tarbiyalanib voyaga yetayotgan yosh avlod ham jamiyat rivojiga xissa qo'sha oladigan yetuk shaxs bo`lib yetishadi. Buning uchun oila qurish arafasida turgan yosh yigit-qizlarni nikoh munosabatlariga kirishishdan avval oila muqaddasligini, oiladagi ularning huquq va majburiyatlarini o`rgatuvchi o`quv kurslarda o`qishlarini tashkil etish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining 30.04.2023 kungi yangi tahrirdagi konstitutsiysi
2. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. A.Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi SH. Foxidov ; mas`ul muharrir H. Boltaboyev. – Toshkent: Cho`lpon nomidagi NMIU, 2013
3. <https://m.kun.uz/news/2024/02/25/ozbekistonda-ajrimlar-korsatkichi-mdh-boyicha-eng-pastligi-malum-qildi>
4. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/hech-bir-shaxs-hujjatsiz-qolmaydi-huquqiy-aksiyasiga-start-berildi>
5. <https://uzmarkaz.uz/uzc/news/oila-mediatsiyasi-kuchaytirilmogda>
6. [https://journal.tinkoff.ru/stat-divorce/#:~:text=%D0%9F%D0%BE%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B5%2C%20%D0%BD%D0%B0%2010%20%D0%B1%D1%80%D0%B0%D0%BA%D0%BE%D0%B2,%D1%84%D0%BE%D1%80%D0%BC%D1%83%D0%BB%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%BA%D0%BC%D0%BD%D0%BD%D0%BA%D1%83%20%C2%AB%D0%BD%D0%B5%20%D1%81%D0%BE%D1%88%D0%BB%D0%B8%D1%81%D1%8C%20%D1%85%D0%B0%D1%80%D0%B0%D0%BC%D0%B8%C2%BB.](https://journal.tinkoff.ru/stat-divorce/#:~:text=%D0%9F%D0%BE%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B5%2C%20%D0%BD%D0%B0%2010%20%D0%B1%D1%80%D0%B0%D0%BA%D0%BE%D0%B2,%D1%84%D0%BE%D1%80%D0%BC%D1%83%D0%BB%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%BA%D0%BC%D0%BD%D0%BD%D0%BA%D1%83%20%C2%AB%D0%BD%D0%B5%20%D1%81%D0%BE%D1%88%D0%BB%D0%B8%D1%81%D1%8C%20%D1%85%D0%B0%D1%80%D0%B0%D0%BA%D1%82%D0%B5%D1%80%D0%B0%D0%BC%D0%B8%C2%BB.)
7. [https://kaz.inform.kz/news/kazakstanda-arbir-ekinshi-otbasy-azhyrasady-statistika\\_a3487098/](https://kaz.inform.kz/news/kazakstanda-arbir-ekinshi-otbasy-azhyrasady-statistika_a3487098/)
8. <https://lex.uz/docs/-6704819?query=426>